

4-kurs.
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



"FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI"
Termiz davlat universiteti bo'yicha prorektor
prof. R. To'rayev

Ro'yxatga olingan. № BD. 60310100.2.09.
2024-yil "26" "06"

QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI

FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310000- Ijtimoiy va xulq atvoriga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar	
QXIB406	2024-2025	7	6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Tanlov	o'zbek	5		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama	
1.	Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti	72	108	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalar qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining nazariy va amaliy masalalari yuzasidan zarur bo'lgan bilimlarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'rni va ahamiyatini talabalarга yetkazish; - tarmoqda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar, ularning asosiy yo'nalishlarini o'rganish; - qishloq xo'jaligida resurslar salohiyati shakllanishi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tadbirkorlik shakllarining rivojlanishini, tarmoqda investitsiyalar ko'lamini va samaradorligini oshirish kabi masalalarni o'rganish; - tarmoqda yalpi va tovar mahsulotlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, taqsimlash, tarmoqda qilinadigan xarajalar, mahsulot tannarxi va uni pasaytirish, daromadlar, foyda va ularni ko'paytirish yo'llarini, o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish yo'llarini o'rganish. 			
3.	<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>I-MODUL. QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINING UMUMIY ASOSLARI</p> <p>1-mavzu: "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanining predmeti, vazifasi va uslublari.</p> <p>Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. Tarmoqning maqsadi va vazifalari. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning zarurligi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishda davlatning o'rni. Tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosqichlari. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanining tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi.</p>			

<p>2-mavzu: Agrosanoat majmuasining mohiyati, tarkibi va vazifalari</p> <p>Agrosanoat majmuasining mohiyati, ahamiyati va tarkibi. Uning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining agrosanoat majmuasini barpo etishning zarurligi. Respublika agrosanoat majmuasining maqsadi va vazifalari. Mamlakatimizda agrosanoat majmuasi sohalarining tashkil etilishi, ularning rivojlanish holati. Agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi sohalarning o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar hamda ularni yanada takomillashtirish masalalari. Oziq-ovqat xavfsizligi va uni ta'minlashda agrosanoat majmuasining o'rni. Mamlakatimizda agrosanoat integratsiyasini yanada takomillashtirish yo'llari.</p>	<p>3-mavzu: Qishloq xo'jaligida mavjud mulk va tadbirkorlik shakllari</p> <p>Bozor munosabatlari sharoitida turli xildagi mulkchilik shakllarini barpo etishning zarurligi. Qishloq xo'jaligida mulkiy islohotlar. Tarmoqda turli shakldagi mulk turlarining shakllantirilishi. Mulkiy munosabatlar. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida mavjud tadbirkorlik shakllari. Jamoa mulki va unga asoslangan tadbirkorlik shakllari. Xususiy mulk va unga asoslangan tadbirkorlik shakllari. Dehqon va fermer xo'jaliklari hamda ularning hozirgi rivojlanish holati. Davlat mulki va unga asoslangan xo'jaliklar. Tarmoqda xorijiy investitsiyalar ishtirokida tadbirkorlik shakllarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari. Qishloq xo'jalik kooperativlari, agrofirmlar. Agroklasterlar va ularning tashkiliy asoslari. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida tadbirkorlik shakllarining ulushi. Tarmoqda mulkiy islohotlarni yanada takomillashtirish yo'llari.</p>
	<p>2-MODUL. QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLAR SALOHIYATINING SHAKLLANISHI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH</p>
<p>4-mavzu: Qishloq xo'jaligida yer resursi va undan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari</p> <p>Respublikamizning yer fondi va uning tarkibi. Qishloq xo'jaligi yerlari, ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati. Sug'oriladigan yerlar miqdori va sifati. Qishloq xo'jaligida yer resursining o'ziga xos xususiyatlari. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligida shakllanayotgan yer munosabatlari. Yer munosabatlarining huquqiy asoslari. Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga oid hukumatning chora-tadbirlari. Yer monitoringi. Davlat yer kadastrini, uning mazmuni. Yer resursidan foydalanish holati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mamlakatimizda yer resurslaridan foydalanishning hozirgi darajasi. Qishloq xo'jaligi yerlarini baholash. Yer resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini oshirish yo'llari.</p>	

5-mavzu: Qishloq xo'jaligida suv resursi va undan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

Mamlakatimizning suv resurslari va ularning manbalari. Suv munosabatlarining huquqiy asoslari. Suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga oid hukumatning chora-tadbirlari. Suvdan foydalanish holati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanishning hozirgi darajasi. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli. Suv iste'molchilari uyushmasi. Suvdan foydalanish uchun to'lovlar. Suv xo'jaligini boshqarish tizimidagi islohotlar. Qishloq xo'jaligi tarmog'iga zamonaviy, tejamkor sug'orish usullarini joriy etish. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

6-mavzu: Qishloq xo'jaligida mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

Mehnat – ishlab chiqarishning muhim omili sifatida. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida mehnat resurslarining mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Mamlakatimiz aholisi tarkibida qishloq aholisining ulushi. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mehnat unumdorligi tushunchasi. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanishning hozirgi holati. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish yo'llari.

7-mavzu: Qishloq xo'jaligida asosiy va aylanma fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

Asosiy va aylanma fondlar haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jaligining asosiy va aylanma fondlari, ularning ahamiyati. Doimiy va o'zgaruvchan kapital. Asosiy va aylanma fondlarning ishlab chiqarishda qatnashishi bo'yicha guruhlanishi. Asosiy va aylanma vositalarni baholash. Asosiy va aylanma fondlar tarkibi. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Asosiy va aylanma fondlar bozori. Asosiy vositalar ijarasi. Asosiy fondlarni shakllantirish manbalari. Korxonaning moliyaviy mablag'lari. Chetdan jalb etilgan mablag'lar. Asosiy vositalarning amortizatsiyasi haqida tushuncha. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning hozirgi holati, ulardan foydalanishni yaxshilash, samaradorligini oshirish yo'llari.

3-MODUL. QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

8-mavzu: Qishloq xo'jaligida investitsiyalar va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

Investitsiya tushunchasi, unig iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. Investitsiya turlari. Investitsion muhit tushunchasi. Investitsiyalarning huquqiy asoslari. Investitsiya borasidagi davlatning siyosati. Ichki va tashqi investitsiyalar. Investitsiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Qishloq xo'jaligida investitsiyalarga bo'lgan talab. Ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish. Agrar sohadagi investitsion muhit. Investitsiyalarni qishloq xo'jaligiga jalb etishning hozirgi holati. Irrigatsiya va melioratsiyaga, yangi texnika, samarali texnologiyalarga, chorvachilikka va boshqa sohalarga sarflanayotgan investitsiyalar hamda ularning iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

9-mavzu: Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar va ularni tarmoqqa joriy etishni kengaytirish imkoniyatlari

Qishloq xo'jaligida innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida qo'llanilayotgan innovatsiyalarning turlari. "Aqli qishloq xo'jaligi", qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, tarmoqda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi. "Buyumlar internet" tushunchasi. Qishloq xo'jaligida resurs tejamkor texnologiyalarning qo'llanilishi. Qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari. Qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

10-mavzu: Qishloq xo'jaligida infratuzilma sohalarini tashkil etish va ularni rivojlantirish yo'llari

Infratuzilma tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida infratuzilmaning zarurligi, ahamiyati. Hukumatimiz tomonidan qishloq infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida infratuzilma tizimi. Infratuzilma turlari va ularning qishloq xo'jaligida tashkil etilishi subyektlari. Ishlab chiqarish infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi. Ijtimoiy infratuzilma. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasining hozirgi rivojlanish holati. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish masalalari.

11-mavzu: Qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish

Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti. Tarmoqning yalpi mahsulotini hisoblashda qo'llaniladigan o'ichov birliklari. Yalpi mahsulot tarkibi. Yalpi mahsulotning miqdori va qiymati. Dehqonchilik va chorvachilikning yalpi mahsuloti. Yalpi mahsulotni taqsimlash va sotish yo'llari. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tovarlilik darajasi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birjalarda, ko'rgazmalarda sotish. Yalpi mahsulotini ko'paytirish yo'llari. Yalpi mahsulotni ko'paytirishning ekstensiv va intensiv yo'llari.

12-mavzu: Qishloq xo'jaligida qilinadigan xarajatlar va mahsulot tannarxi
 Qishloq xo'jaligida turli xildagi xarajatlar qilishning obyektiv zarurligi. Qishloq xo'jaligida qilinadigan xarajatlarning turlari. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida doimiy xarajat. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida o'zgaruvchan xarajatlar. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar. Davr xarajatlari. Moliyaviy faoliyat xarajatlari. Tasodifiy xarajatlar. Tarmogda yetishtirilayotgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari (tannarxi). O'rtacha xarajaga ta'sir etuvchi omillar. Tannarxning turlari. Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari.

13-mavzu: Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining shakllanishi va uni takomillashtirish yo'llari
 Bozor munosabatlari sharoitida tovar-pul munosabatlari. Bozor munosabatlari sharoitida mahsulotlarning narxini belgilash tartibi. Shu boradagi davlatning siyosati. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxleri, ularning amaldagi darajasi, dinamikasi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Sanoat mahsulotlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxleri o'rtasidagi mutanosiblik. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida narxlar shakllanishini yanada takomillashtirish yo'llari.

14-mavzu: Qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish va intensivlashtirishning samaradorligini oshirish yo'llari
 Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishning mohiyati. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish nazariyasi. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning intensiv va ekstensiv yo'llari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning ko'rsatkichlari. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy omillari.

15-mavzu: Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo'llari
 Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va ahamiyati. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi. Foyda va uning turlari. Foyda turlarini aniqlash tartibi. Rentabellik darajasi, uning mohiyati. Rentabellik darajasini aniqlash tartibi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari.

4-MODUL. QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI IQTISODIYOTI

16-mavzu: Dehqonchilik tarmoqlari iqtisodiyoti

Qishloq xo'jaligining tarmoqlari. Dehqonchilik tarmoqlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. Dehqonchilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlar va ularning ahamiyati. Dehqonchilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati. Mamlakatimiz hukumati tomonidan dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari. Dehqonchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish yo'llari.

17-mavzu: Chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti
 Chorvachilik tarmoqlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlar va ularning ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati. Mamlakatimiz hukumati tomonidan chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari. Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish yo'llari.

4. III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanining predmeti, vazifasi va uslublari.
 2. Agrosanoat majmuasining mohiyati, tarkibi va vazifalari
 3. Qishloq xo'jaligida mavjud mulk va tadbirkorlik shakllari
 4. Qishloq xo'jaligida yer resursi va undan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari
 5. Qishloq xo'jaligida suv resursi va undan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari
 6. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari
 7. Qishloq xo'jaligida asosiy fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari
 8. Qishloq xo'jaligida aylamma fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari
 9. Qishloq xo'jaligida investitsiyalar va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari
 10. Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar va ularni tarmoqqa joriy etishni kengaytirish imkoniyatlari
 11. Qishloq xo'jaligida infratuzilma sohasini tashkil etish va ularni rivojlantirish yo'llari
 12. Qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsulotlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish
 13. Qishloq xo'jaligida qilinadigan xarajatlar va mahsulot tannarxi
 14. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining shakllanishi va uni takomillashtirish yo'llari
 15. Qishloq xo'jaligida ixtisoslashuv shakllari
 16. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning omillari va yo'nalishlari
 17. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo'llari
 18. Dehqonchilik tarmoqlari iqtisodiyoti
 19. Chorvachilik tarmoqlari iqtisodiyoti
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o'tilishi, mavzularga mos keluvchi pedagogik texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

5.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim fan bo'yicha ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari o'quv dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'limning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talaba o'qituvchi rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.

"Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fani bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish talabalarida tarmoq iqtisodiyoti haqida bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U fanning o'quv rejasini va fan sillabusida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Fan bo'yicha mustaqil ta'lim O'RTMI (o'qituvchi rahbarligida talaba mustaqil ishi) va TMI (talaba mustaqil ishi) shakllarida amalga oshiriladi.

O'RTMI fanning tegishli mavzulari bo'yicha esse yozish, "SWOT tahlil" texnologiyasi asosida berilgan topshiriqni bajarish, elektron jurnallardan mavzuga oid maqola topib tahlil qilish, internet manbalaridan mavzuga oid video material topish, krossvord tayyorlash, "Venn diagrammasi" texnologiyasi asosida berilgan topshiriqni bajarish, test savollari tayyorlash, taqdimot tayyorlash, referat tayyorlash, "Nilufar guli" texnologiyasi asosida berilgan topshiriqni bajarish, "Keys stadi" texnologiyasi asosidagi topshiriqni bajarish kabi shakllarda amalga oshiriladi. TMI esa talabalar tomonida tayyorlanadigan referatlar shaklida amalga oshiriladi. Fan bo'yicha mavzularni yanada chuqur o'rganishlarini ta'minlash maqsadida talabalarga fan yuzasidan mavzularni taqsimlab beriladi va ushbu mavzular yuzasidan talabalar referat tayyorlaydilar va topshiradilar.

TMI (talaba mustaqil ishi) uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.
2. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari.
3. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha islohotlar.
4. Qishloq xo'jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish borasidagi islohotlar.
5. Qishloq xo'jaligini moliyalash, kreditlash va soliqqa tortish sohasidagi islohotlar.
6. Agrosanoat majmuasining mohiyati, tarkibi va vazifalari.
7. Oziq-ovqat xavfsizligining mohiyati va uni ta'minlashda agrosanoat majmuasining o'rni.
8. Yer resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
9. Suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
10. Qishloq xo'jaligida yer resursidan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hamda ularni aniqlash tartibi.

11. Qishloq xo'jaligida suv resursidan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hamda ularni aniqlash tartibi.
12. Suvdan foydalanishda qo'llaniladigan tejamkor texnologiyalar va ularni amaliyotga joriy etish yo'llari.
13. Qishloq xo'jaligida mehnat resursining mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
14. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish holati va samaradorligiga baho beruvchi ko'rsatkichlar.
15. Qishloq xo'jaligida mavjud mulk shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
16. Qishloq xo'jaligida mavjud tadbirkorlik shakllari, ularning tashkil etilishi va rivojlanishi.
17. Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining mohiyati, ahamiyati va tarkibi.
18. Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.
19. Qishloq xo'jaligida asosiy fondlar, ularning tarkibi, turkumlanishi hamda shakllanish manbalari.
20. Qishloq xo'jaligida aylama fondlar, ularning tarkibi, turkumlanishi hamda shakllanish manbalari.
21. Qishloq xo'jaligida asosiy fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.
22. Qishloq xo'jaligida investitsiyaning mohiyati, ahamiyati va jalb etish manbalari.
23. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, tarmoqqa investitsiyalarni jalb etish ko'lamini va samaradorligini oshirish yo'llari.
24. Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarning mohiyati, ahamiyati va turlari.
25. Qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari.
26. Qishloq xo'jaligida infratuzilma tarmoqlarining ahamiyati, tashkil etilishi va ularni yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.
27. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida infratuzilmaning turkumlanishi.
28. Qishloq xo'jaligida xarajatlar va ularning turkumlanishi.
29. Qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxi, uning tarkibiga kiruvchi xarajatlar va uni pasaytirish yo'llari.
30. Qishloq xo'jaligida narxning iqtisodiy mohiyati, shakllanishi va turlari.
31. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlarining shakllanishini takomillashtirish yo'llari.
32. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotning mohiyati, tarkibi hamda ularni sotish va taqsimlash yo'nalishlari.
33. Qishloq xo'jaligi tovar mahsulotining mohiyati, tarkibi hamda ularni sotish va taqsimlash yo'nalishlari.
34. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish yo'llari.

<p>35. Qishloq xo'jaligida rejalashtirishning mohiyati, ahamiyati, tamoyillari va usullari.</p> <p>36. Qishloq xo'jalik korxonalarida tuziladigan rejalarning turlari.</p> <p>37. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari va omillari.</p> <p>38. Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishni joylashtirishning mohiyati va ahamiyati.</p> <p>39. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirishning mohiyati, shakllari, ko'rsatkichlari va samaradorligini oshirish imkoniyatlari.</p> <p>40. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikning mohiyati, ahamiyati va ko'rsatkichlari.</p> <p>41. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish yo'llari.</p> <p>42. O'simlikchilik tarmog'ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni, ahamiyati va hozirgi rivojlanish holati.</p> <p>43. Mamlakatimizda o'simlikchilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.</p> <p>44. Chorvachilik tarmog'ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni, ahamiyati va hozirgi rivojlanish holati.</p> <p>45. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.</p> <p>TMI (talaba mustaqil ishi) mavzulari bo'yicha talabalar referat tayyorlaydilar va uni taqdimot qiladilar.</p>	<p>6. V. Fan o'qitilishidan kutiladigan natijalar (shakllanadigan kompetensiyalar).</p> <p>“Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tarmoqda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlarni iqtisodiy asoslarini va yo'nalishlarini; tarmoqdagi ishlab chiqarish resurslari va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini mavjud bo'lgan tadqiqot usullaridan foydalangan holda aniqlashni va kelajakda ularni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish yo'llarini belgilab berishni; tarmoqda ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega bo'lgan tadbirkorlik shakllarini rivojlantirishni; tarmoqqa investitsiyalarni jalb etish hamda samaradorligini oshirish yo'llarini <i>bilishtir</i>; - qishloq xo'jaligida turli mulkchilikka asoslangan korxonalarimiz shakllanish jarayonlarini tahlil qilish bo'yicha; qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga oid statistik va hisobot ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha; milliy, tarmoqlar, hududiy va qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining o'zaro aloqadorligini tushunish bo'yicha; qishloq xo'jaligida bozor muammolari bo'yicha asosiy iqtisodiy talablarni shakllantira olish; qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlaydigan investitsiyalarning samaradorligini ta'minlaydigan xulosa va takliflarni tayyorlash bo'yicha <i>ko'nikmalarga ega bo'lishlari</i>; - agrar iqtisodiyot, uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati; qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish holati; qishloq xo'jaligi korxonalarining mulkchilik shakllari va mulkiy munosabatlari; qishloq xo'jaligi tarmog'idagi
---	--

<p>islohotlar jarayonida davlatning aralashuvi me'yoriylari va tartibi; tarmoqqa ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish; tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy, amaliy jihatdan asoslangan <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>	<p>7. VI. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish.
<p>8. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirish.</p>	
<p>9. VIII. Fan bo'yicha adabiyotlar va axborot manbalari.</p> <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: "Adib Nashriyoti", 2011. - 400 b. 2. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. -T.: "Cho'ipon" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. -320 b. 3. Murtazayev O., Ahrorov F.B. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: "ILM ZIYO", 2017. -415 b. 4. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2018. -404 b. 5. Nurmatov N.J., Avliyayev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: "Fan ziyosi", 2021. -580 b. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" NMU, 2021.-464 b. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 	

<p>to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.</p> <p>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2020-y. 06/20/6024/1063-son</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019-y., 06/19/5853/3955-son; 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.</p> <p>6. Andrew Barkley and Paul W. Barkley. Principles of Agricultural Economics. -2nd ed. Published in the USA and Canada by Routledge Taylor&Francis Group. USA. 2013.</p> <p>7. Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. Учебник, –М.: "Юрайт", 2017. -385 стр.</p> <p>8. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Statistik to'plam. Toshkent, 2023</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <p>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali</p> <p>2. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti</p> <p>3. www.agro.uz – O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining sayti</p> <p>4. www.water.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining sayti</p> <p>5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi</p>	<p>10. Fanning o'quv dasturi Termiz davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Fan/modul uchun mas'ullar: B.E.Turayev - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, PhD. N.J.Nurmatov - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi. X.G'.Sultonov - TerDU "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi.</p>
<p>11. Taqrizchilar: Termiz davlat universiteti "Kompyuter ilmlari va dasturiy injiniring" kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor Xatamov O.Q. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori iqtisod fanlari doktori Otamurodov Sh.N.</p>	